Murakkab tuzilishli chuzilgan obsessiv xolatlarni shizofreniyani shubsimon xurujidan farklash kerak [Zavidovskaya G.I., 1971], Nevrotik shilkim xolatlardan fark kilib, ular odatda birdan kuchayuvchi vaxima bilan kuzatiladi, shilkim assotsiatsiyalar doirasi kengayadi va tizimlashadi, shilkimliklarga «aloxida mazmun» beradi (Geltungszwang, K.Jaspers buyicha): ilgari indifferent bulgan jismlar, vokealar, atrofdagilar tomonidan tusatdan berilgan tanbexlar bemorlarga fobiyalar, kontrastli va daxshatli fikrlar xakida eslatadi va taxdid mazmuni aloxida tasavvur uygotadi.

Agar klinik manzarasida gomotsid mayilli xurujsimon paydo buluvchm shilkim

xolatlar ustun bolsa, ularni epilepsiyani ruxiy ekvivalentlari bilan kiyosiy takkoslash kerak.

### ISTERIK (ASOSAN KONVERSION) BUZILISHLAR

Kadimgi grek shifokorlari ayollarda paydo buluvchi isteriyani bachadon funksiyasini buzilishi bilan boglagan. Isterik nevroz (hysteria; grek. hystera — bachadon) — bu polimorf funksional, ruxiy, somatik va nevrologik buzilishlar bilan kuzatiladi va katta ishonuvchanlik, bemorlar uziga atrofdagilarni istalغان yul bilan karatishga intilishi bilan xarakterlanadi.

Bu isterik buzilishlarni xilma-xilligi va uzgaruvchanligini kursatadi. «Isteriya — bu protey, oxiri yuk kuppina turli shakllardir; xameleon — tuxtovsiz uzini rangini uzgartirib turadi» (Sidengam T.). Isteriya simptomlari odatda turli xil kasalliklarni belgilarini eslatadi, shuning uchun uni J.M.SHarko «buyuk simulyantka» deb atagan.

Fransuz psixiatrlari (Jane P., Dyupre D. Va boshk.) isteriyani asosiy simptomlarini ajratgan: ong tor doirada kechinmalarini idrok kilish mumkinligicha torayadi va goyalar uziladi, shaxsni butun funksiyasi shu bilan boglik xolda taxlil kilishga, kobiliyatsiz buladi; asosiy xal kiluvchi rol isterik konstitutsiya xisoblanadi.

E.K.Krasnushkin jaxon urishi tajribasiga tayanib yozganki, isterik reaksiya va isterik somatik buzilish paydo bulishi uchun kupincha isterik konstitutsiya talab kilinmaydi, sababi kupincha ruxiyatni biologik katlamlarida yotadi.

E.Krepelin xisoblashicha, isteriya uchun xissiyotlarni ruxiy va somatik funksiyalarga tarkalishi xarakterli va kasallik simptomiga aylanadi, kungil tulkinlanishi yolgon va kuchaygan shakllarga mos keladi. E.Krepelin fikricha xar bir odam kuchli xayajonlanganda tovushi yukoladi, oyoklari chalishadi va boshkalar. Isterik shaxslarda xamma ruxiy faoliyat labilligi natijasida bu buzilishlar engil yuzaga keladi va arziyas baxonada mustaxkamlanadi. E. Krepelin bu ruxiy faoliyat xususiyatlarini ximoyani moslashgan shakllari deb baxolagan.

K.Bongeffeffer (1911) tomonidan isteriyani xoxlash nazariyasi taklif kilingan, bu



shunga asoslanganki, isterik buzilishlarda xamma vakt kasallikni xoxlash xissii buladi. nimadir sun'iy. burttirilgan buladi, kasallikni ifodalanishi kurgazma buladi.

**Tarkalishi.** Subklinik isterik belgilar xayot davomida umumiy axolining 1/3 kismida kuzatiladi. Umumiy tipdagi shifoxonalarda psixiatrik maslaxatning 5dan 15 % ini isterik buzilishlar tashkil kiladi [Kaplan H.J., Sadoek B.J., Grebb J.A., 1994].

Isterik nevrotik buzilishlar isterik reaktiv psixozlar kabi erkaklarga nisbatan ayollarda 2 marta kup kuzatiladi. Isterik stigmalor boshka nevrotik belgilar bilan kushiladi – vaximali-fobik, obsessiv-kompulsiv, ipoxondrik-senestopatik, affektiv buzilishlar bilan.

**Klinik belgilari.** Isterik buzilishlarga xissiy labil, affektiv etilmagan, xissiy reaksiyalar, ta'sirotlar va jonlilik izchil emasligi bilan kuzatiluvchi ruxiy infantilizm belgili shaxslar moyil buladi. Isterik buzilishlar kupincha ayollarda kuzatiladi.

Isterik nevrozda 3 asosiy gurux simptomlar kuzatiladi: vegetativ, xarakat va sensor. Ular xammasi somatik va nevrologik kasalliklarni eslatadi.

Vegetativ buzilishlar bexushlik kurinishida, yurak urib ketishi bilan kuzatiluvchi vegetativ krizlar, bosh aylanish, kungil aynish, kayt kilish, oshkozon spazmi kurinishida buladi.

Xarakat buzilishlari odatda giperkinezli yoki ixtiyorsiz xarakatlar (titrash, kaltirash) va xarakat tuxtashi simptomlari akineziya (parezlar va paralichlar) kurinishida kuzatiladi. Giperkinezlar tiklar xarakterida buladi, boshni va oyok-kullarni (dikkat bilan karalganda kuchayadi) kupol ritmik titrashi, blefarospazm, xoreoform xarakatlar va kaltirashlar kuzatiladi, bular xoreoformaga nisbatan ancha uyushgan va stereotipik buladi. Isterik giperkinezlar xissiy xolatga boglik buladi, ular vakti-vakti bilan susayadi, e'tibor berilmaganda yoki psxoterapiya ta'sirida tuxtashi mumkin.

Isterik paralichlar mono-, gemi- va paraplegiya xarakterida bulishi mumkin va ba'zi xollarda markaziy spastik, boshka xollarda sust periferik paralichlarni eslatadi. Isterik paralichlar topografiyasi asab tizimidagi uchok lokalizatsiyasiga

yoki innervatsiyasi joylashishiga mos tushmaydi, ular xamma oyok-kullarni yoki bugim bilan chegaralangan kismini kamrab oladi. Isterik paraliclarda patologik reflekslar yoki uzgargan pay refleksleri aniklanmaydi. Mushaklar atrofiyasi odatda unchalik ifodalanmagan buladi, ular xarakatsizlik bilan boglik bulishi mumkin.

Sensor buzilishlar sezgining buzilishi bilan kuzatiladi (anesteziya, giper- va gipesteziya) va tananing turli kismlarida ogrik sezgisi buladi. Kupincha oyok-kullarda sezgi buzilishi kuzatiladi. Bu buzilishlarni tarkalishi kupincha ixtiyoriy buladi va bemorni uzi bu buzilishni nomoyon etadi, shuning uchun bemorlar uchun anesteziya paypok, chulki, kulkop, nimcha, belbog kurinishida va yuzni yarmida kuzatiladi.

Isterik algiyalar (ogriklar) tanani istalgan kismida kuzatilishi mumkin (bosh ogriklar, belda, bugimda, oyok-kulda, yurakda, tilda, korin soxasida ogriklar). Isteriyali bemorlar korni («shaxmat taxtasi») kurinishida buladi, kup laparotomiyadan keyingi chandiklar bilan deformatsiyalangan buladi. Bu Myunxauzen simptomi deb ataladi. Bunday buzilishli bemorlar bir xirurgik klinikadan ikkinchisiga operatsiya kildirish uchun kuchib yuradi.

Xar safar statsionarga tushganda ular uzining xayoti va kasallik tarixi xakida uydirma ma'lumotlar beradi. Anesteziya va algiyalardan tashkari isterik nevrozda sezuv a'zolari funksiyalarining yukolishi, karlik, kurlik, kuruv maydoning konsentrik torayishi (bunda bemorlar atrof-muxitni guyoki truba orkali kuradi), isterik skatoma, amavroz kuzatiladi.

Isterik nevrozda utkir ruxiy jaroxat ta'sirida vegetativ buzilishlar va ongni buzilishi, torayish bilan kuzatiluvchi tarkalgan tutkanokli xolatlar paydo bulishi mumkin, isterik tutkanok manzarasi kuzatiladi. Epileptik tutkanokdan fark kilib, bunda ong tulik yukolmaydi va bemor atrofdagi bulib turgan vokealarni anglab turgan xolda uzini avaylab yikiladi. Bu bilan boglik xolda atrofdagilar kanchalik xayajonlansa, u shunchalik uzok davom etadi.

Patomorfoz bilan boglik xolda isterik buzilishlarda xozirgi vaktida isterik tutkanokning avj olgan klinik manzarasi kam kuzatilishi mumkin.

Isterik tutkanok zamonaviy kurinishlarda kuppina gipertonik kriz, yurak xuruji

yoki kandaydir boshqa vegeto-kon tomir paroksizmini eslatadi, bu xolatiy jaroxat bilan bog'lik buladi. Isterik tutkanoklar tuzilishida kupincha total titrash – «butun tanani titrashi» yoki tana kismlarini kaltirashi kuzatiladi, umumiy amaliyot shifokorlari buni isterik simptomatikani belgisi deb baxolamaydi.

Isterik buzilishlar patomorfozida shubxasiz tibbiy mavzulardagi ma'ruzalar katta rol uynaydi, axolini umumiy ma'lumot darajasini oshiradi, ancha jiddiy va xavfli kasalliklarga diqqatni jalb kiladi. Paypok, kulkop, nimcha kurinishidagi sezgi yukolish urniga (bularni psixiatrlar ilgari yozishgan), xozir oyok-kullarni uvishib kolishi, chumoli uralash sezgisi, igna sanchgandek sezgi, bitta yoki ikkala oyokni sovuk kotishi yoki isib ketish sezgisi kuzatiladi. Bu sezgilar organik buzilishga uxshashi mumkin va uz navbatida tashxis kuyishni kiyinlashtiradi.

Tipik paralichlar va parezlar, astaziya-abaziya kam kuzatiladi. Bemorlarni oyok va kullarida xolsizlik kuzatiladi, bular xayajonlanganda paydo buladi. Bemorlar oyogi paxtadek yumshok bulib kolganligini, chalkashayotganligini, bir oyogi xolsiz ekanligini, eshilib ketayotganligini yoki ogirlik paydo bulganligini, yurganda gandraklab ketayotganligini aytadi.

Bu buzilishlar namoyishkorona buladi, agar bemorni orkasidan kuzatilsa, u yanada yakkol ifodalanadi. Mutizm urniga (gapira olmaslik) xozirgi vaktida duduklanish, nutkda tutilib kolish, aloxida suzlarni talaffuzi kiyinligi kuzatiladi.

Xolatni tugri baxolash kiyinligi shundaki, shifokor bilan bir necha marta suxbat kilgandan sung, deontologik xato kilinganda, bemorlar buzilishni psixogen xarakterli ekanligini inkor etadi. Isterik nevrozda bemorlar bir tomondan xamma vakt «kurkinchli», «chidab bulmaydigan ogriklar», «kaltiratuvchi varaja» xakida gapiradi, ilgariyi simptomga xarakterli bulmagan galatilikni ta'kidlaydi, ikkinchi tomondan «paralich bulgan oyogiga» uzini befardek tutadi, «kurlik» yoki mutizm bilan baxslashmaydi. Affektiv buzilishlar xissiyot labilligi, kayfiyatni tez uzgarib turishi, yiglokilik bilan, kupincha ingrashga utadigan kuchli affektiv reaksiyalarga moyillik bilan xarakterlanadi.

Isterik nevrozni kechishi tulkinsimon buladi. Salbiy xolatlarda isterik nevrotik reaksiya simptomatikasi kuchayadi va asta-sekin birinchi uringa affektiv

buzilishlar chikadi. Intelektual faoliyatda xissiy mantik belgilari, xulkida nomoyishkorona elementlar, uziga jalb kilish uchun istalgan rolga kirishi, uzini va uzini xolatini egotsentrik baxolash paydo buladi. Bemorlarda tashki ta'sirlovchilarga sezuvchanlik oshib ketadi, sodir bulayotgan vokealarga bevosita e'tibor berishga moyillik oshadi.

Isterik nevrozdagi vegetativ-somatik buzilishlarni psixogen xarakterligi ularni konversion buzilishlar deb atashga asos buladi. Konversiya xakida (lot. conversio — e'tibor, yunalish) shunday xollarda gapirish mumkinki, xissiy omillar natijasida jismoniy uzini xis kilish uzgaradi. Kupchilik psixiatrlar, fransuzlardan tashkari, konversiyani odamni irodasiga boglik boshkariluvchi funksiyalarda paydo buluvchi simptomlar bilan chegaralagan.

Konversion simptomlar 3 guruxga bulinadi: xarakat aktlari buzilishi, sezgi buzilishi, xulkni xamma shakllarini va atrofni baxolashni buzilishi. Kadimgi adabiyotlarda «konversiya» atamasi kam foydalanilgan. Kupincha nevrozlardagi vegetativ-somatik buzilishlarni baxolab, P.K. Anoxin tushunchasidan foydalanib, Lange dalil keltirib, «tutib turilgan xissiyot» terminini tankid kilgan, yozishicha xissiyot xissiy zaryad, agar u odamda paydo bulsa, uni tutib turish mumkin bulmaydi, fakat tashki xissiy belgilarni, masalan, mimikani tutib turish mumkin, kolganlari baribir periferik apparatlarni kullab, vegetativ yullar topib chikadi, nevroz uchun xarakterli bulgan vegetativ-somatik buzilishlarni yuzaga chikaradi.

### NEVRASTENIYA

Bu nevroz yukori kuzgaluvchanlik, tez charchash va xoldan toyish bilan kuzatuluvchi ta'sirchanlik bilan xarakterlanadi. G.Bird nevrasteniyanı birinchi bulib yozgan, uni sivilizatsiyani tez rivojlanishi bilan boglagan, asab tizimi kapitalistik xayotda usib borayotgan talabga va xayot tempiga chiday olmaydi.

E.K.Krasnushkin nevrasteniyanı paydo bulish sababini urganib chikib, charchash xakidagi fiziologik bilimlar, tez-tez uta charchash (giperfatigatsiya) va asab xoldan toyishini faoliyat tuxtashiga ximoya signali ekanligidan guvoxlik berishini yozgan. Odam iroda kuchi bilan charchokni engishi mumkin va kerakli

faoliyatni davom ettiradi – bu katta xajmli ishni kiska muddatda bajarganda kuzatiladi. Bunday xollarda gap fakat yukori moxiyatli zurikish xakida emas, balki irodali zurikishni turtkilovchi affektiv zurikish xakida xam ketadi.

Shoshilinch ishlardagi takror zurikish, charchashni davom etishi, kupincha majburiy uykusizlik, organizmni dam olmasligi va uykuda kuch tiklanmasligi, organizmni rezervini kamayishi asabni xoldan toyishiga olib keladi.

Natijada simptomatika shakllangan, G.Bird tomonidan anik baxolangan va keyinchalik nevrasteniya umum kabul kilingan uzakli buzilish deb karalgan – bu «ta'sirlanuvchan xolsizlikdir». Nevrasteniya bu simptomini I.P.Pavlov aniklab, uni asosiy belgi deb xisoblagan va unga anik tavsif bergan.

Boshka nevrozlar singari nevrasteniya uchun xam kasallik klinik manzarasiga organizm tizimini poyma-poy kirishi xarakterli. Dastlab vegetativ buzilishlar paydo buladi, uni xususiyati ta'sirchan xolsizlik xisoblanadi. Xayajonlanganda yoki jismoniy zurikishda bemorlarda taxikardiya, terlash, oyok –kullar sovuk kotishi, uyku va ishtaxa buzilishi paydo buladi.

Paydo bulgan vegetativ reaksiyalar kuchi buyicha mos bulmay, tez yukoladi. Bemor tez uykuga ketadi, ammo past shovkinga uygonadi, keyin yana tez uykuga ketadi. Ochlik xissi tez paydo buladi, ammo bir necha koshik ovkat egandan sung ishtaxa yukoladi va ba'zi xollarda ovkatdan bosh tortish paydo buladi.

Nevrasteniya bemorlar kupincha bosh ogrigiga shikoyat kiladi. Odatda bunday bemorlar boshi bosilayotganligini, chamberakdek kisilayotganligini aytadi. Bu sezgilar xayajonlanganda, ishni davom ettirishga xarakat kilinganda, nimagadir dikkatni jamlaganda kuchayadi.

Ba'zi xollarda bosh ogrigi pulsatsiyalovchi xarakterda buladi, pulsatsiya kulokdagi shovkin bilan mos tushadi. E.K.Krasnushkin bosh ogrigini tugri, normal bulmagan sezgi ekanligini, akliy faoliyatini charchashida signal sifatida paydo bulishini yozgan. Nevrasteniya bemorlarda bosh ogrigi erta vegetativ buzilish xarakterini oladi.

Nevrasteniya rivojlanishini kelgusi davrlarida sensomotor buzilishlar paydo buladi: turli xil ta'sirlovchilarga, ichki a'zolar tomonidan kelayotgan sezgilarga

sezuvchanlik oshadi. Bemorlar xarorat uzgarishini kutara olmay, shikoyat kilishni boshlaydi, ularda sovuk ob-xavoda uvishish buladi, issikda kuchli terlashga shikoyat kiladi.

Yorug chirok ularni ta'sirlantiradi, kuzda noxush sezgi, boshda ogrik paydo kiladi. Ilgari befark bulgan shovkinlar yokmaydi, uxlashga xalakit beradi, tushak judayam kattik, kupol tuyuladi. Bemorlarda kulokda shovkin sezgisi paydo buladi, ular «yurak urishini sezadi», korinda nimadir «dumalayotganini», «kisilayotganligini» va boshkalarni sezadi.

Bu xislar bemorda ipoxondrik kayfiyat chakiradi, yanada kuprok ichki a'zolar ishiga dikkatini jalb kiladi, uz navbatida sezgilar busagasi susayishi uchun sharoit paydo buladi, ipoxondrik shikoyatlar kengayadi.

Nevrasteniyali bemorlar mayda, anik xarakatlarni kiyinchilik bilan bajaradi, bir xil xolat uzok saklanadi. Kutish eng azobli buladi. Bu buzilishga I.P.Pavlov dikkatini karatgan va buni shunday tushuntirgan: nevrasteniyada ichki tormozlanish zararlanadi va shuning uchun bemorlar uchun kutish judayam azobli buladi.

Nevrasteniya bilan kasallangan talabalar ma'ruzada tinch utira olmaydi, doimo xolatini uzgartirib turishga majbur buladi, kulay xolat topolmaydi, dikkatini jalb kilolmaydi va atrofdagilarga xalakit beradi.

Keyinchalik affektiv buzilishlar kushiladi. «Xissiy inkontinensiya» tipik buladi (Bumke O.). Bemorlar uzining xissiga ega bulmaydi, ular arzimagan narsalarga yiglaydi, ularda noadekvat reaksiya, ta'sirchanlik, xafachilik paydo buladi, ammo uz-uzidan tez tinchlanadi. Uzini xis kilish judayam noturgun, tashki ta'sirlarga boglik xolda uzgarib turadi.

Kupincha kayfiyati tushkun, ammo uzidan kungli tulmaydigan gamli bulmaydi va doim xafachilik, ta'sirchanlikka tayyor turadi.

Ertalablari uzini xis kilishi kupincha yomon buladi. «sayr kilsa» dastlab uzini yaxshirok xis kiladi, ammo charchok paydo bulishi bilan kasallik simptomlari kaytalanadi.

Agar nevrasteniyali bemor oldingi majburiyatini bajarishni davom ettirsa

(tugrirogi xarakat kilsa), vegetativ, sensomotor va affektiv simptomatikani kuchayishidan tashkari, birinchi uringa intellektual faoliyat kiyinligi chika boshlaydi, nevrastenik buzilishlarning ideator darajasi paydo buladi. Bu ukishda materialni uzlashtirish kiyinligiga shikoyatlar bilan ifodalanadi.

Bemorlar kiska muddatga xam e'tiborini jalb kilolmaydi. Ishga kirishadi va bir necha dakikadan sung fikrlar keladi, boshka narsalar xakida uylaydi, ukigan narsasini aytib berolmaydi, keyinchalik mavxum tushunchalarga, telefon rakamlarga, ismlarga, kunlarga va boshkalariga xotira buziladi.

Uzini ishlashga majbur kilganda boshida noxush sezgilar, ta'sirchanlik, uzidan va atrofdagilardan norozilik, xolsizli, xoldan toyish paydo buladi. Uzini xech narsaga yaramay kolganligini sezib, bemorlar noreal reja tuzadi, koldirilganlarini urnini tuldirish uchun bir nechta ish oladi, chalguvchanlik va kasallik simptomlarini paydo bulganligi uchun bittsini xam oxiriga etkazmaydi.

Omadsizlik, odatda uzini xis kilishni va kayfiyatini yomonlashtiradi, xech narsaga kodir emasligiga ishonadi. Dustlar bilan mulokot, kuvnok kompaniyalar ilgari konikish keltirgan bulsa, xozirda bu kiska vakt konikish uygotadi, ammo xammasi tez joniga tegadi va ta'sirlantiradi, bosh ogrigi chakiradi, ziddiyatga olib keladi, soglom kishilar uzgargan xolatini va xulkini tushunolmaydi.

Nevrasteniyali bemorlar uzining sezgilarini taxfil kilishga moyil buladi: kulokda shovkin, yurak soxasida turli xislar, ichak soxasidagi turli sezgilar va boshkalar.

Bemorlar vaxima bilan bu sezgilarni eshitadi, gamli kayfiyat jiddiy va xavfli kasalliklar xakidagi fikrlarga olib keladi, bemor uzida bu kasallikni xamma belgilarini topadi. Dikkatni turgunsizligi tufayli kasallik xakidagi fikrlar tez-tez uzgaradi: gox bemor oshkozon raki xakida, gox yurak kasalligi, gox boshka kasallik xakida uylaydi.

Nevrasteniya uzok kechganda boshka nevrotik buzilishlar kushilishi xisobiga simptomatikani kengayishi kuzatiladi. Bunga kushimcha ekzogen zararlar, somatik kasalliklar, tugri davoning yukligi olib keladi.

Kushimcha ekzogen ta'sirlar natijasida boshka nevrotik simptomatika paydo

buladi. masalan, isterik nevroitik reaksiyalar, bir kancha mualliflar nevrasteniyani prenevroitik xolat deb baxolagan, bu boshka nevrozlardan oldin bulib utadi.

Odatda nevrasteniyani ikki varianti ajratiladi: xoldan toyish nevrozi, sababi intellektual zurikishlar xisoblanadi va reaktiv nevrasteniya, uxlamaslik, somatik kasalliklar, charchash kurinishidagi jaroxatli xolatlar sabab buladi.

Bu bulinish shartli xisoblanadi, xoldan toyish nevrozida odatda reaktiv komponent xam buladi – kiska vaktida ishni omadli yakunlash bilan boglik vaxima, ish sifatini kurkuvi, kursatilgan vaktida bajarilmagan ishni okibatleri va boshkalar.

Bu kupincha talabalarda ifodalangan buladi, boshka fakultetga yoki boshka oliy ukuv yurtiga kuchganda kuprok ukishga, kushimcha sinov topshirishga va chegaralangan vakt ichida imtixon topshirishga majbur buladi. Bunda xissiy omil katta rol uynaydi – omadsizlik okibatleri oldidagi kurkuvi.

Nevrasteniyani gipo va giperstenik shakllari ajratilgan. Tugrirogi bu shakllar kasallikni dinamikasida kuruladi. Giperstenik shakli uchun ta'sirchanlik, tashki ta'sirlarga sezuvchanlikni oshishi, affektiv reaksiyalarga moyillik, dikkat buzilishi bilan xarakterlanadi, gipostenik nevrastenyada ish kobiliyatining pasayishi, doimiy charchash xissi, xolsizlik, ba'zida uykuchanlik, atrofdagilarga kizikishning pasayishi, istalgan faoliyatda-tez xoldan toyish kuzatiladi. Kasallikni rivojlanish jarayonida giperstenik shakldan gipostenik shaklga utish mumkin.

Nevrasteniyaning kechishi salbiy, nevroitik simptomatikani murakkablashuvi bilan chuzilishi mumkin. Katamnestik tekshiruvlarda nevrasteniyaning ijobiy okibati aniklangan. Ba'zi mualliflar ma'lumotlariga karaganda 10-25 yildan sung 49,6% bemorlarda sogayish, 24,8%ida turgun yaxshilanish aniklangan.

### **NEVROTİK BUZİLİŞLƏR DİNAMİKASI.**

Nevrotik buzilishlarni klinik dinamikasini baxolash kursatadiki, psixogenli jarayonlar kuyidagi yunalish buyicha boradi: jaroxatli ta'simi asta-sekin kuchayishida, simptomatika yukorida aytib utilgan tendensiyalar ogirlashish sxemasida rivojlanib boradi, moslashuv reaksiyalar – nevroitik reaksiyalar – nevroz – shaxsni nevroitik rivojlanishi.



Ogirlik buyicha eng engili nevroitik reaksiya xisoblanadi, biz uni normal moslashuv reaksiyalardan fark kilishimiz kerak, ular anik va asta-sekin kechadi. Adekvat davo utkazilsa nevroitik reaksiya moslashuv reaksiyasiga aylanadi.

**Moslashuv reaksiyalari.** Bular normal reaksiya bulib, xar bir soglom odamga xos. Bu normal belgini klinik terminlar bilan xarakterlash konikish xosil kilmaydi, ammo tushunarli izox bu soxada ishlab chikilmagan. Xoxlagan odamda moslashuv xolatlarda biz uchun muxim bulgan klinik belgilarni aniklashimiz mumkin.

Moslashuv reaksiyalari:

- Individ uchun axamiyatli bulgan kandaydir vazifa, muammoga javoban paydo buladi, bu vazifani omadli xal kilish moslashuvning kandaydir turini xolatiga va darajasiga boglik – ishlab chikarish, ijtimoiy, oila ichi yoki shaxslararo. Moslashuvli zurikish ijtimoiy integratsiyaning birlamchi instinktlarini va ijtimoiy uzini realizatsiya kilishni yoki ularni ikkalasini zurikishini keltirib chikaradi.

- Bemorda xech kanaka affektiv toraygan ong kuzatilmaydi, ammo unda psixologik dominantalar belgilari buladi. Unda ong klinik jixatdan mutlak yorokin buladi.

- Bu xolat amaliy jixatdan atrofdagilarga sezilmaydi va fakat yakin odamlar ichki zurikishni kuradi, muammosi xakida biladi, axlokiy kullab kuvvatlaydi, yordam beradi. Bu erda odam oshgan tonus xolatida, dominantada buladi.

- Odamni rolli xulki saklanadi, ya'ni u uzini xamma ijtimoiy rollarini boshkaradi va bajaradi.

- Vegetativ akkompanementning xech kanaka klinik belgilari bulmaydi.

**Nevrotik reaksiyalar.**

Ruxiy zarba natijasida tusatdan kutilmaganda paydo buladi yoki bir muncha vaktida yigiladi – moslashuvli mexanizmlar paydo bulgan ruxiy-xissiy zurikish bilan vaktinchalik tugrilanmaydi. Nevrotik reaksiya – bu moslashuv mexanizmlarni darz ketishi, kuchli birinchi yoki navbatdagi ta'sir natijasida paydo buladi, ammo xoldan toyishni kaytishi shaxs muammosi buladi. Nevrotik reaksiya uzining maxsus komponentlari yoki belgilari bilan xarakterlanadi. Ular moslashuv reaksiyalardan sifatiy fark kiladi.

- Rolli funksiyalar darz ketadi va odam talab kilingan xulk koidalariga uzini yoshi, jinsi, ijtimoiy xolati, ma'lum ijtimoiy vaziyat uchun mos xolda uzini tutolmaydi.

- Affektiv-toraygan ong paydo buladi.

- Odamni xulki bunday xolatlarda xarakterologik buladi, ya'ni temperamentiga, asab tizimi tipiga, shaxs yadrosiga mos xolda buladi, uni xakikiy xolatini jaroxatli xolatga, ma'lum odamlarga munosabatini yashirib bulmaydi.

- Ba'zilar odamlarga agressiya kilishini boshlaydi, boshkalari yiglashni, ingrashni, shikoyat kilishni boshlaydi, uchinchilari kuzgaladi va atrofdagilar dikkatini uziga tortadi va ulardan yordam, kullab kuvvatlashni istaydi, ba'zilar xissiy kotib koladi, uziga kelib «nutkini yukotadi». Ba'zi odamlar uzini tutolmay chopadi yoki eshikni taraklatib chikib ketadi. Xulkni xamma variantlarini keltirib bulmaydi, xulkiy reaksiya spektri keng va individual buladi.

- Bundan sung nevroitik reaksiya susayadi, tugaydi, odam bir muncha vakt somatovegetativ diskomfort xis kiladi, bu shubxasiz ilgarigi ruxiy zarbani vegetativ akkompanementi xisoblanadi. Sezgilar bu erda juda uzgaruvchan buladi – bu oyok va kullarda xolsizlik, xoldan toyishgacha charchash, bosh va tanada ogrik sezgisi, bosh aylanishi, terlash, yurak urib ketishi, terini kizarishi yoki okarishi (asosan yuzni) bulishi mumkin. Ichaklarni utib ketuvchi buzilishi yoki siyib kuyish kurinishida bulishi mumkin.

- Nevrotik reaksiya bergan odam, u tugagandan sung xamma vakt uzini xulki va xolatiga tankidiy karaydi. Uni uzidan kungli tulmaydi va uzini yomon tutganligini tushunadi, odatiy stereotipdan chikkanligini, goyat kuchli tartibdan chikkanligini tushunib, achinadi, «uzini tutolmay» uzini xislarini boshkarolmaganligini, bunday xolat soglik uchun zararli ekanligini tushunadi.

- Nevrotik reaksiyalar etarlicha kiska xolat xisoblanadi. Ular ma'lum sabab ta'sirida tez tugaydi. Ruxiy jaroxatlovchi xolat ya'ni ziddiyatli munosabatlar bunday xollada yangi darajaga chikadi yoki ziddiyat katnashchilarining xissiy zaryadi tugaydi yoki agressiv tomon tuxtatadi, uz navbatida yoki konikadi, yoki

aksincha olingan natija konikarsiz buladi. Atrofdagi odamlar aralashishi mumkin, yoki bu xolatni rivojlanishini tuxtatishi mumkin yoki jabrlangan odam uzini kulga olib tinchlanadi.

- YAKKA nevroitik reaksiyalar uzining klinik tuzilishiga kura patologik buladi va ruxiy soglom odamlarda xam kuzatilishi mumkin va psixiatrga murojaat kilishga sabab bulmaydi. Bu tendensiyalar chegarali psixiatriya uchun xarakterli xisoblanadi – soglom odam ruxiyatida chukur darajada bulmagan ruxiy cheklanish paydo bulishi mumkin, chegarali xolatli bemorlar ruxiyatida esa normal psixologik mexanizmlarni ta'sir kilishi davom etadi.

### **Nevrozlar.**

Ruxiy jaroxatli xolat chuzilganda, chukurlashganda, nevroitik reaksiyalarning tezlashishiga va ogirlashuviga olib keladi, moslashuvli mexanizmlarni chukur, vital darajada darz ketishiga xavf paydo buladi. Ruxiy zarbani somato-vegetativ akkompanementi ancha ifodalangan buladi va kasallik xolatiga yakinlashadi.

Aynan shu davrda ximoya mexanizmlari deyarli ong osti darajasiga mobilizatsiyalanadi. Odam bunday xolatida uzining somatik xolatiga e'tiborini jalb kila boshlaydi. Sub'ektda bulgan xamma vegetativ ruxiy zarba belgilari nazarga tushadi. Kutkaruvchi vaziyat sodir bulib, jismoniy uzini xis kilish soxasiga siljiydi. Uzok davom etgan vaxima giperventilyasion sindromni rivojlanishiga olib keladi, u jiddiy, ammo kaytar fiziologik siljish buladi.

Mushak spazmlari, asosan nafas mushaklarini uta charchashiga, ogrik sezgilariga olib keladi, bemor kupincha yurak ogriklariga duch keladi, ularni «yurak nevrozi» deb nomlashga sabab buladi.

Nafas mushaklari xarakatining kiyinlashuvi nafas olishni tulik emasligi, xavo etishmasligi, tomokda tikilish, kukrak kafasini bosilishi, yutal paydo bulishi, xansirash, tomok kichishi xissiga olib keladi va bemorlar kupincha nafas olishni nazorat kilishni boshlaydi, uni yana kuprok tezlashuvi va chukurlashuvi mushak va nafas olishni buzilishiga olib keladi.

Paresteziyalar, mushaklarda diskomfort xissi, ogriklar, spazmlar, artralgiyalar paydo buladi. YURak tomonidan puls labilligi, ekstrasistoliya, sinusli taxikardiya.

kon bosimining oshishi kuzatiladi. Oshkozon-ichak trakti tomonidan – kungil aynishi, kayt kilish, ich ketish, aerofagiya, korin dam bulishi, meteorizm, kekerishgacha bulgan peristaltika buziladi. Tana xarorati uzgarib turishi mumkin.

Asab-ruxiy doira tomonidan – ong torayishi, xushdan ketish, bosh aylanishi, muvozanat buzilishlari kuzatiladi. Yukorida sanab utilganlarning xammasi uz navbatida sarosimali xujum deb ataluvchi asosli vaximani kuchayishiga olib keladi. Odamlar bunday xolatda doim ichki zurikish, charchok, ta'sirchanlik, dikkatni susayishi, sefalgiya, ishga xotirani yomonlashuvini xis kiladi, uyku buziladi, kurkinchli tushlar kuradi. Ogrik sindromi ikki fazali buladi – giperventilyasiya boshida ogrik paydo buladi, u chukurlashtirilganda ular susayadi.

Keyinchalik yukorida yozilgan psixofiziologik uzgarishlar fonida juda kizikarli va murakkab ximoya belgilari, shartli ravishda biz uni «kasallik konsepsiyasi» deb ataydigan xolat paydo buladi.

U shundan iboratki, ong uzining yomon xis kilish faktlariga konsentratsiyalanadi. Ruxiy zarbaning somato-vegetativ akkompanementida ruxiy jaroxatli kechinmalar aksentini, ruxiyatni umum kutkaruvchi siljishi sodir buladi. Bemor kasallikni boshlanishida uni sabablariga tulik muljali saklangan buladi.

Bemorlar bunday davrda odatda terapevt shifokorlarga murojat kiladi, uzini xolatini «kasallik konsepsiyasini» yangi aksentlarini ongsiz ijtimoiylashuvi uchun yordam suraydi. Rolli xulkini faollashuvini kuramiz va bemor odam roli shartli kulay buladi.

Terapevt kasallik xolatini takidlagandan sung (kupincha VSD tashxisi), bemor uzini yomon xis kilish faktiga namoyishkorona manipulyativ ta'sir kilishni boshlaydi va ta'kidlangan kasallik uzining ruxiy zarba manbasi buladi (odatda bu xamma vakt anik va yakin odamlar buladi).

Bemorlar uzini yomon xis kilishini anik yoki shama kilib aytadi va uzini gamgin kilib kursatadi, atrofdaqilardan yordam, xamdardlik kutadi. Adabiyotlardagi ma'lumotlarga karaganda kupchilik bemorlar uzini «nevrotik yulini» terapevt bilan boshlaydi, kam xollarda nevropatolog bilan boshlaydi.

Katta foizli xolatlarda bu taktika ijobiy natijaga olib keladi va ruxiy

jaroxatlovchi zurikish susayadi yoki xatto jaroxatlanish tuxtaydi. Kupchilik xollarda bu er-xotinni, bolalarni, yaqin karindoshlarni xulkini normallashtirish bilan ifodalanadi. Er ichkilikni, xotin uzgartirishni tuxtatadi, ishechilar xulkini uzgartiradi, bolalar ota-onalari talablarini bajarishni boshlaydi va boshkalar.

Nevroz kup xollarda uz-uzidan yukoladi, sababli omil susayadi va bemor psixiatr nazariga tushmaydi. Bu xolat xamma psixiatriya sohasida xakikatan mantikiy xolat xisoblanadi – ba'zi patologik xolatlar xayotda tabiiy shaklda yukoladi, boshkalari maxsus tibbiy yordam talab kiladi.

Agar jaroxatlovchi omil bartaraf etilmasa, susaymasa, bemorni xolati chuziladi, surunkaliga utadi – bemor doimiy shifokorga murojaat kilishni boshlaydi, odatda bu davrda simptomatikani yatrogen kuchayishi sodir buladi, terapevt bemorda ob'ektiv belgi topolmaydi, yangi va yangi tekshiruvlar buyuradi, bemor nevropatolog yoki psixiatr maslaxatiga boradi.

Terapevtlarni surab surushtirishi bemorda katta zurikish, xatto ta'sirchanlik keltirib chikaradi, shifokorlar intuitiv tarzda bemorlarda «kasallikka ketgan» kishini xis kiladi, real, somato-vegetativ patologiyaga ega bulmaydi.

Nevropatologlar kupincha nevroitik xolatni davolashga xarakat kiladi, an'anaviy tarzda nevrozlar xazirgacha adabiyotlarda yozilib kelinmayapti va ular uzining kompetensiyasiga ishonadi. Bizning kuzatishlarimizga karaganda nevropatologlar terapevtlarga nisbatan kasallikka kengrok yondoshadi.

Keyinchalik yukorida yozib utilgan atrofdagilarni e'tibor kilish mexanizmi paydo buladi, ruxiy jaroxatlanish va psixogen bosim zurikishi susayadi, nevrozda xuddi ximoya tuzilmasidek susayadi, butunlay yukoladi va bemorni axvoli asta-sekin yaxshilanadi.

Bu fonda vegetativ funksiyani va ruxiy xolatni normallashtiruvchi farmakologik vositalar rol uynaydi, shubxasiz ijobiy rol uynaydi. Susayish bulmagan xollarda bemorni axvoli yomonlashganicha kolaveradi va davomli ruxiy jaroxatli xolatni bulishi xatto yomonlashtiradi, bunda bemor ertami, kechmi psixiatr kabuliga boradi.

Kupincha bu yomonlashuv rolli xulknii kuchayishi xisobiga paydo buladi, katta

namoyishkoronalik, simptomatikani yorokinligi kuzatiladi (xolatni isterik komponenti utkirlashadi). Bu fakt (psixiatrga yullanma) uz navbatida asab tizimini chegarali omadsizligidan darak beradi va bunda nevroz dinamikasida jaroxatli xolat mutaxassis tomonidan davo kilinganda amaliy jixatdan yana susayishi mumkin.

Nevrotik xolat dinamikasida bitta tendensiyani aniklash juda muxim. U shundan iboratki, jaroxatli xolatga sezish busagasi yakkol pasayganda, bemorlarda asosiy psixogeniya bilan bevosita boglik bulmagan boshka ruxiy zarbaga sezish busagasi nisbiy oshadi. Suxbatda bemorlar uzini utgan muammoli xolatlarini ancha engil baxolaydi.

Ular dolzarb xolat rivojlanguncha ularni xayoti oddiygina konikarli emas, xatto yaxshiligini ta'kidlaydi. Ma'lumki bunday pereaksentirovka bilan bemor uzining xolatini yomonligini ta'kidlaydi.

Ba'zida ularni xulki boshka modeldagi psixogen omillarga amaliy jixatdan tulik areaktiv xarakterga ega buladi. Bu ma'lum jaroxatli ruxiy xolatni xal kilishda nevrozli bemorlar ruxiyati umumiy konsentratsiyalangan yunalishda tulik tushunarli buladi.

Taklif etilgan modelda biz turli xil nevrozlar uchun obligat bulgan kuyidagi belgilar uyushmasini kuzatamiz. Bular kuyidagi kursatgichlar:

1. Sub yoki depressiv kayfiyat foni.
2. Astenik simptomlar.
3. Funksional tabiatli somato-vegetativ buzilishlar.
4. Rolli va manipulyativ xulkn kuchayishi (isterik komponent).
5. Kasallikka olib kelgan sababni anglash.

Bu belgilar nevrozik xolatni turli kurinishlarida aniklanishi mumkin.

Nevrotik xolatlarni tushunishga bunday yondashilganda turli xil nevrozlarni kiyosiy tashxislash muammosi echiladi, kupincha bu xolatlar uyushgan, polifonik buladi, paritet boshlarida turli buzilishlar buladi.

«Yakka nevroz»dek bulishi mumkin, u yoki bu simptomlarning solishtirma ogiriligiga boglik xolda shartli ravishda toza, ilgari nevroz turlari ajratiladi.

Masalan, rolli, manipulyativ xulk ustun bulganda isterik nevrozdek kurinadi, ammo uni tarkibida depressiya, asteniya, somato-vegetativ yoki xatto psevdonevrotik simptomlar buladi, uzi kasallik sababini tushunadi.

Astenik buzilishlar ustun bulganda manzara nevrasteniya yoki astenik nevrozga mos keladi, unda somato-vegetativ, depressiv simptomlar va rolli xulkiga mos xolda kasallikka olib kelgan sababni tushunadi (uta charchash). Somato-vegetativ belgilar ustun bulganda ipoxondrik nevroz shakllanadi. Tushkun kayfiyatga shikoyatlar ustun bulganda nevroz depressivdek kurinadi va boshkalar.

**Nevrotik rivojlanish.** Ogirlashganda, asosan ruxiy jaroxatlovchi xolat davomli bulganda, bemorda kelgusi jarayonlarga surunkali ruxiy zarbaga moslashish sodir buladi.

Bu erda nevroitik tuzilmani sifatiy kayta kurilishi sodir buladi. «Kasallik konsepsiyasini» emirilishi boshlanadi – u «omadsiz xayot konsepsiyasiga» aylanadi. Bemorda kasallikni boshlanish laxzasi soglom va nosoglom xayot davrlari chegarasidek yukoladi.

Bemorda butun xayot omadsizliklar va baxtsizliklar zanjiridek, odamlar unga xakikatsizlik kilayotgandek, unga yaxshi tarbiya va ma'lumot bermagandek xis rivojlanadi.

Chukurlashayotgan depressiya katotim xayotga turtki buladi, odam kasalligini baxtsizliklarni zanjir davrlari deb uylaydi. Bemor mijgov, vaysaki odamga aylanadi, fakat uzini baxtsizliklari xakida gapiradi. Bemorlar suxbatni uzini noxushliklariga boglaydi. Keyinchalik ertami yoki kechmi negativ reaksiya kilishni boshlaydi, bu uz navbatida ziddiyatni kuchayishiga olib keladi. Atrofdagilarni aybdor kilishga xarakat kiladi.

Nevrotik rivojlanishda asab-ruxiy buzilishlarni uzgarib turishi yukoladi va xolat susayish davrlarisiz, bemor uchun uzluksiz, ogir buladi. Bemor istalgan ruxiy zarbali ta'sirga nevroitik kompleksni kuzishi bilan javob beradi.

Bu xolatni ba'zida sust kechuvchi nevrozsimon shizofreniyadan fark kilish kiyin buladi, kasallikni ichki manzarasi tekis bulib ketadi va xolatni psixogen uzagi nikoblanadi.

Shunday kilib nevroitik rivojlanishni tashxislash uchun quyidagi simptomlar kompleksi kerak:

1. Kayfiyatni doimiy depressiv foni.
2. Funktsional somato-vegetativ buzilishlarni doimiy bulishi.
3. Bemorlarni fiksatsiyalangan roli, rolli xulkn yakka shakli buladi.
4. »Kasallik konsepsiyasini» «amadsiz xayot konsepsiyasiga» aylanishi.
5. Bemorni ongida ruxiy jaroxatli omilni emirilib ketishi.
6. Xoxlagan ruxiy zarbali omilga nevroitik simptomatikani universal reaksiyasining kuchayishi.

**Shaxsni psixogen rivojlanishi (Gindikin V.YA., 1997)**

<b>Bosh miyani zararlanishiga yoki kasalligiga boglik bulmagan shaxsni surunkali uzgarishi, salbiy ruxiy jaroxatlar ta'siri, noadekvat tarbiya, falokatli yoki kuchli davomiy ruxiy zarba natijasida rivojlanadi.</b>	
<b>SHaxsni nevroitik rivojlanishi</b> psixopatiyani chegara varianti xisoblanadi, surunkali nevroitik xolat nevroitik depressiya boskichidan utib, orttirilgan psixopatiyaga aylanadi.	<ul style="list-style-type: none"> <li>- isterik</li> <li>- eksploziv</li> <li>- obsessiv</li> </ul>
<b>Shaxsni patologik rivojlanishi</b> shaxsni premorbid xususiyatlarining davomli patogen zararli ta'sirlar natijasida astasekin sifatli siljishi, turgun tizimlashgan uta kimmatli (vasvasa) goyalar shakllanadi.	<ul style="list-style-type: none"> <li>- ipoxondrik</li> <li>- sudbozlik-paranoyyal</li> <li>- rashk</li> </ul>
<b>Shaxsni patoxarakterologik rivojlanishi salbiy tashki xolatlar ta'sirida chegarali psixopatiya varianti shakllanishi</b>	

Bunday xollarda shaxsni nevroitik rivojlanishini, amaliy jixatdan shakllarini fark kilib bulmaydi. Nevrotik xolat komponentlarini u yoki bu darajada biroz uzgartirib turadigan etarlicha yaxlit konglomerat paydo buladi. Shaxsni nevroitik rivojlanishini dastlabki tashxisi kiyinchilik tugdirmaydi, kupchilik bemorlar uzini kasallik tarixini yolg'on aytadi.

Shikoyatlar kupligida nevrozni boshlanishini, uni dinamikasini aniklash oson emas. Bemorlar tashki tomondan sust kechuvchi nevrozsimon shizofreniya bilan



kasallangan bemorlarni eslatadi. kupincha psixogeniya uchun xarakterli bulgan dinamika kuzatilmaydi va umumiy manzara amorf va tushunarsiz buladi.

### KIYOSIY TASHXIS

Xoxlagan tip aralashgan belgilar bilan xarakterlanadi. YUkorida yozib utilgan nevrotik buzilishlarni tuzilishi va dinamikasi chegarali buzilishlarni boshka fenomenlari urtasida chegara kuyishni talab kiladi.

*Nevrozlar va shizofreniya.* Bu ikki kasallikni kiyosiy tashxisi shizofreniya simptomatikasi sust kechganda kiyinchilik tugdiradi, klinikasi anik bulmagan simptomatika, uzgaruvchan manzara, somatik kasalliklar bilan infiltratsiyalangan buladi.

Tashxisda asosiy tayanch laxxa ruxiy jaroxatlovchi xolat bulishi va nevrotik buzilish tuzilishi K.YAspers mezonlariga mos bulishi xisoblanadi. Nevrozsimon shizofreniya uzining simptomatikasi bilan nevrozni eslatadi va nevrozni xech kandy etjologiyasi, patogenezi va kechish konuniyatlariga mos bulmaydi, shu bilan birga:

- Somatik shikoyatlar xamma vakti senestopatiya xisoblanadi, ya'ni ruxiy avtomatizm sindromini sensor variantini yumshok belgilariga yakin buladi.
- Bemorni roli bulmaydi yoki real psixogen xolarga xizmat kilmaydi.
- «Kasallik konsepsiyasini» manipulyativ xulki yuk, uz navbatida kupincha kuzatilmaydi.
- Psixoterapiya nevrozda asosiy davo usuli xisoblanadi, sust kechuvchi shizofreniyada amaliy jixatdan kam foydali buladi, asosiy davo usuli farmakoterapiya xisoblanadi.
- Nikoblangan yoki somatizirlangan depressiya shizofreniyada somatik kasallik bilan kuzatiluvchi endogen depressiya yoki senestopatiya bilan kuzatiluvchi murakkab depressiya shaklida buladi. Bu depressiyani nikoblovchi samarasiga shizofreniya klinikasi bilan tanish bulmagan internistlar duch keladi. Bilimli psixiatrlar bu «nikobni» engil echib oladi.

SHizofreniya klinikasida nevrozsimon buzilishlar:

- Endogen shizofrenik jarayon konuniyatlari buyicha kechadi.
- Buzilish progredientlik tendensiyasiga ega buladi.
- Klinik belgilari asosan nevrotik darajada buladi.
- Klinik nevrotik belgilar psixologik jihatdan tushunarsiz buladi, ruxiy jaroxatlovchi xolat bilan xulosalanmaydi, reallikdan uzilgan buladi.
- Klinik belgilar xissiy kashshoklik fonida rivojlanadi, sovuklik, odamovilik, energitik potensial reduksiyasi, uziga xos fikrlash bilan kushiladi.

*Nevrozlar va fobiyalar.* SHizofrenik fobiyalarni kiyosiy tashxisi katta kiyinchilik tugdirmaydi. SHizofrenik fobiyalarda:

- Tuzilishi, dinamikasi va shaxsiy fobik buzilishlar psixogen ta'sir bilan real boglik bulmaydi.
- Fobiya tuzilishiga K.Y.Aspers mezoni kullanilmaydi, ularni mazmuni psixogeniya bilan mos tushmaydi, kupincha butunlay bulmaydi.
- Bu fobiyalar psixogen omilga boglik bulmaydi va u tuxtaganda xam davom etadi.
- Bu buzilishlar xamma vakt kup yoki oz darajada be'mani buladi va odatda shizofreniya uchun xarakterli bulgan boshka simptomlar bilan kushilib ketadi. Psixogen genezli fobiyalar:
  - Kupincha «fiksatsiyalangan fobiya»lar buladi, ular ma'lum xavf, taxdid xolatida paydo bulib, uzidan keyin davomli iz koldiradi.
  - Odam shunga uxshash yomon xolatlarga tushib kolsa, utib ketgan psixogen ta'sirni eslaydi va faollashadi. Shuning uchun bemorlarda moslashuv ximoyali xulklar kompleksi paydo buladi, bemor bu faollashishdan kochadi, agar buni iloji bulmasa, uni yumshatishga xarakat kiladi.

Kuyidagi variantlarda misollar keltirilgan. Odamni mashina turtib ketadi va unda uzok vakt kuchadan utishda kurkuv paydo buladi, u er osti yullaridan yurib boshlaydi, uzini xar kungi marshrutini uzoklashtiradi. Yoki xaydovchi falokatga uchrasa, uzok vakt mashinaga chika olmaydi.

